ABDULLA QAHHOR VA KETRIN MENSFILD HIKOYALARINING USLUB XUSUSIYATLARI

Adabiyotda iz qoldirgan har bir buyuk yozuvçining öziga xos uslubi mavjud. Ular asarlarining jozibadorligi ham aynan şundadir. Hikoya janrining rivojiga ulkan hissa qöşgan yozuvçilardan bölmiş Abdulla Qahhor va Ketrin Mensfild ham öz uslublariga egadirlar. Uşbu yozuvçilarning hikoyalarini tahlil qiladigan bölsak, ularning uslublarida ayrim umumiy jihatlarni ham köramiz. Buning asosiy sabablaridan biri ikkala yozuvçining ham dunyoga maşhur buyuk rus yozuvçisi Anton Pavloviç Çexovni öziga ustoz deb bilganidadir. V.M.Jirmunskiyning (1891–1971) ta'kidlaşiça, yozuvçi ijodini unga ta'sir o'tkazgan milliy va jahon adabiy an'analari bilan qiyosan o'rganiş ham juda katta ahamiyatga ega bo'lib, adibning ijodiy individualligini, milliy va jahon adabiyoti taraqqiyotida tutgan o'rnini aniqlaşga yordam beradi[1]. Olimning bu fikridan körinib turibdiki, hikoyanavislarning asarlarini örganganda, ular ijod qilgan zamon, makon, davrdagi adabiy an'analar va albatta, ularning öziga ustoz deb ergaşgan yozuvçilari, ular yaratgan adabiy maktab ham juda muhim ahamiyatga egadir.

Abdulla Qahhor özining "Muborak közoynak" deb nomlangan maqolasida bu borada şunday fikrlarni yozadi: "Bundan yigirma beş yil burun men u kişining inqilobdan oldin bosilib çiqqan 22 tomlik asarlari töplamini qölimdan qöymasdan öqib çiqdim. Şunda alomat bir hodisa yuz berdi: şu bilan muhtaram ustod menga muborak közoynaklarini berdilar-u: "Mana buni taqib öz xalqingni ötmişiga nazar sol", dedilar"[2].

Ketrin Mensfild ham öz davrida Anton Çexov asarlaridan ilhomlangan. Uning an'analarini davom ettirişga harakat qilgan. Hattoki, Mensfildni "Ingliz Çexovi" deb ham ataşgan. Bu holat esa, ularning asarlarida ayrim muştarak jihatlar paydo bölişiga asos böladi.

Abdulla Qahhor va Ketrin Mensfild hikoyalarida ayrim umumiy uslubiy jihatlar közga taşlanadi. Jumladan, hikoyalarining kiçik hajmga ega bölişi, asarlarida içki monolog va dialoglarning qahramonlar ruhiyatini yoritişdagi alohida örni alohida fikrimiz dalilidir. Bu borada, ayrim hikoyalarini qiyosiy tahlil etib köramiz.

1. Жирмунский В.М. Проблемы сравнительно-исторического изучение литера тур // Известия АН. Т. XIX. Вып. 3. – М., 1960. – С.183.
2. Қаҳҳор Абдулла. Асарлар. Беш жилдлик. Бешинчи жилд: Ҳақ сўзнинг кучи. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989, 130-б.

Abdulla Qahhorning ayol xarakterini yoritişga bağişlangan diqqatga sazovor hikoyalaridan biri “Ming bir jon” dir. Uşbu hikoya boşidan to oxirigaça ayol irodasi, matonatini uluğlaşga qaratilgan. Hikoyada bir neça oylardan beri kasalxona palatasida oğir xastalik bilan kuraşayotgan ayol obrazi gavdalantirilgan. Ammo u xastaligiga qaramasdan, juda kötarinki ruhda tasvirlangan. Uning hayotni sevişi, soğayib ketişidan umidvorligi, atrofidagi odamlar bilan xuşçaqçaq suhbat qurişi körsatiladi. Hikoyaning boşlanişi ham özіga xos tarzda tasvirlangan: “Kök yuzida suzib yurgan bulut parçalari oftobni bir zumda yuz köyga solyapti. Oftob har safar bulut ostiga kirib çiqqanida, bahor kelganidan bexabar, hanuz ğaflatda yotgan öt-ölanni, qurt-qumursqani uyğotgani avvalgidan ham yoruğroq, avvalgidan ham issiqroq şu’la soçayotganday tuyuladi”[1].

Hikoya muqaddimasida yozuvçi peyzajdan mohirona foydalanadi. Öquvçi köz oldiga bulutlar orasidan porlab çiqayotgan quyoş tasviri keladi. Mazkur örinda peyzajning ramziy ma’nosi ham nazarda tutilgan. Ya’ni “bulut parçalari oftobni yuz köyga solyapti” deganda, Mastura hamda uning kasallikdan aziyat çekayotganini, “ğaflatda yotgan öt-ölanni, qurt-qumursqani uyğotgani avvalgidan ham yoruğroq, avvalgidan ham issiqroq şu’la soçayotganday tuyuladi” degan sözlari esa xastalik bilan tinmay kuraşayotgan bemor ruhini çöktirmasdan, hattoki, boşqalarga ham dalda bera olişiga, sabr, matonat va kuçda ibrat bölişiga işora qiladi. Bu bilan yozuvçi ayolning kuçli iroda egasi ekanligiga urğu beradi.

Ikkala yozuvçi asarlarida peyzajdan mohirona foydalaniş nuqtai nazaridan muştaraklikni kuzatamiz. Ular peyzajdan, faqatgina, asarning badiiy bezagi sifatida emas, balki teran ma’nolarni ifodalovçi ramziy detal sifatida foydalanadilar. Mensfild ham hikoyalarini modernistik an’analarga sodiq qolgan holda, köpinça, peyzaj bilan boşlaydi. Çunki modernizm uslubida ijodkorlar hikoyani, asosan, voqealar rivojidan emas, balki peyzaj orqali estetik makon yaratişdan boşlaganlar. Mensfildning hikoyalarida ham şu an’ana davom etadi. Masalan, “The Garden Party” (Boğdagi ziyofat) hikoyasi öşa kungi havoning naqadar ajoyibligini ta’riflaşdan boşlanadi. *“And after all the weather was ideal. They could not have had a more perfect day for a garden party if they had ordered it. Windless, warm, the sky without a cloud. Only the blue was veiled with a haze of light gold, as it is sometimes in early summer. The gardener had been up since dawn, mowing the lawns and sweeping them, until the grass and the dark flat rosettes where the daisy plants had been seemed to şine”*[2]. (Tarjimasi:Qolaversa, ob-havo ham ajoyib edi. Boğdagi ziyofat uçun bundan-da mukammal kunni, hatto, buyurtma qilib ham topib bölmasdi: şamolsiz, iliq va osmon mutlaqo bulutsiz. Faqat moviy osmon xuddi yoz boşlarida bölgani kabi,

1. Қаҳҳор Абдулла. Асарлар. Беш жилдлик. Иккинчи жилд: Роман, Ҳикоялар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1987, 316-317-б.
2. http://www.katherinemansfieldsociety.org

yengil tillarang tuman pardasi bilan qoplangan edi. Boğbon tongdan beri maysazorlarni örib, tozalab çiqqan, natijada, maysalar ham, boyçeçaklar ösgan joydagi töq rangli, yassi yaproq töplamlari ham xuddi yaltirab turgandek körinardi)[1]. Hikoya "the weather was ideal" (havo ideal edi) degan gap bilan boşlanadi. Ideal sözining özi faqatgina ob-havoni tasvirlaş uçun emas, balki boğ hamda bayram muhitining mukammal ekanligini körsatiş uçun qöllanilgan. Peyzajdagi barça elementlar birgalikda bekam-u köst, muammosiz hayotni tasvirlaydi. Uşbu ta'rif nafaqat havoning yoqimli va bayram uçun mukammalligiga, balki badavlat oilaning tökin-soçin, taşviş-siz, mukammal hayotiga ham işora edi. Ammo bu ideallik uzoqqa çözilmaydi. Hikoya davomida sodir böladigan keyingi voqealar, ya'ni aravakaşning ölimi, uşbu mukammallikni buzib yuboradi. Yozuvçi tomonidan tabiatning mukammalligini tasvirlaş uçun qöllangan keyingi jumlada esa "the blue was veiled with a haze of light gold" moviy osmonning yengil oltinsimon tuman pardasi bilan qoplangani)ni ta'kidlaydi. Uşbu gapda muallif "veiled" fe'lini qöllaydi. Ya'ni "veil" – "parda" sözi haqiqatni parda ortiga yaşiriş ma'nosini ifodalayotgandek tuyuladi. Hikoya muqaddimasida öquvçi buni anglamasa-da, hikoya söngida Laura ilk bor hayot va ölim haqiqati bilan yuzlaşganida "parda" sözi ramziy ma'noda qöllanilganligi anglaşiladi. Mensfild qahramonning şod-xurramlik his-tuyğularini töğridan-töğri izohlamaydi. Balki tabiat tasviri orqali, ya'ni ideal ob-havo, yorqin nur, toza boğ va yarqirayotgan maysalar orqali bayramona kayfiyatni namoyon etadi. Qahramonlarning ruhiy holati tabiat tasviri vositasida ifodalanadi.

Abdulla Qahhorning "Xotinlar" deb nomlangan hikoyasi ayol xarakteri talqiniga bag'işlangan. Hikoya sujetida uruş davri voqealari tasvirlangan. Unda erkaklarning frontga ketişi oqibatida ayollarning erkaklar bajargan yumuşlarni bajarişi, bu boradagi iroda va matonatlari uluğlanadi. "Xotinlar" hikoyasida ham Qahhor peyzajdan ramziy ma'noda, bilvosita psixologik tasvirning bir körinişi sifatida foydalanadi: "Asqar otaning nazariga bundagi har bir daraxt, har bir buta motamsaro, bahorda yaproq çiqarganda ham qora yaproq çiqaradigan va hozir "endi keldingizmi, Asqar ota" deb turganday körinar edi"[2]. Hikoyadan berilgan parçani tahlil qilar ekanmiz, göyoki har bir daraxt va buta ham xuddi insonlar kabi motamsaro ekanligi köz oldimizga keladi. Bu orqali yozuvçi personifikatsiya, ya'ni jonlantiriş san'atini qöllaydi. Bu esa, aslida, Asqar otaning Ma'rifatxon ölimidan, jangda qurbon bölganligidan iztirob çekayotganini ifodalaydi. Odatda, daraxtlar bahorda yaşil yaproqlar çiqaradi. Lekin bu parçada "qora yaproq çiqaradiganday" şaklidagi jumla qöllaniladi. Bu Ma'rifatxonning uruşda tökilgan qop-qora qoniga işoraday tuyuladi. Uruşning insonlar qalbida qançalik ayançli, qora iz qoldirganiga ham urğu berib ketiladi. "Endi keldin-

1. Tarjimalar bizniki – S. A.
2. Қаҳҳор Абдулла. Асарлар. Беш жилдлик. Иккинчи жилд:Роман, Ҳикоялар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1987, 294-б.

gizmi, Asqar ota" deb turganday körinişi esa Asqar otaning Ma'rifatxon qabrini ziyorat qilişga avvalroq kelmaganiga vijdoni qiynalayotgani, özini aybdor his qilayotganini bildiradi. Yozuvçi hikoyadagi bu peyzaj orqali Asqar otaning qalbidagi içki keçinmalarini, iztirob, armon, hamdardlik, uruşda qurbon bölgan ayol Ma'rifatxonga nisbatan hurmat kabi tuyğularini namoyon qiladi. Bu orqali matonatli, qörqmas, or-nomusli ayollarning xalq tomonidan naqadar uluğlanişini ta'kidlaydi.

Mensfild va Qahhorning yuqorida keltirilgan ikki hikoyasidagi parçalarda peyzaj tasviri öxşaşlik hosil qiladi. Çunki ikkala hikoyada ham qahramonlarning keçinmalari tabiat tasviri orqali ifodalanadi. Bu esa Qahhor va Mensfild poetikasini bir-biriga juda yaqinlaştiradi. Mensfildning "Bog'dagi ziyofat" hikoyasidagi ideal boğ Lauraning ruhiy osoyiştaligini bildirsa, Qahhorning "Xotinlar" hikoyasidagi motamsaro daraxtlar Asqar otaning ruhiy tuşkunligini, ruhiy iztirobini anglatadi. Farqli jihati şundaki, Mensfild tabiat tasviri orqali avval estetik makon yaratib, keyin uning buzilişini körsatadi, Qahhorning hikoyasida esa peyzaj xotira va motam timsoli sifatida tasvirlanadi.

Mensfildning yana bir "A Cup of Tea" (Bir piyola çoy) deb nomlangan hikoyasidagi tasvirlar ham asardagi boş qahramon Rozmarining xarakterini oçişga xizmat qiladi. Masalan: "Yöq, yöq, siren gullari kerakmas. Siren gulini yomon köraman. Uning heç qanday şakl-şamoyili yöq. Xizmatçi ta'zim qilib, siren gulini közdan pana joyga olib qöydi – xuddi bu gap ayni haqiqatdek; siren çindan ham juda şaklsiz gul edi. Menga öşa kalta-kulta, pakana lolalardan bering. Öşa qizil va oq ranglilaridan. Hikoyadan keltirilgan mazkur parçada yozuvçi gul tanlaş jarayonini bejiz keltirmaydi. Bu orqali u ayolning xarakterini oçib bermoqçi böladi. Ya'ni Rozmari siren gulini yoqtirmaydi. Uni heç qanday şaklga ega emas, tartibsiz ösadi deb hisoblaydi. Lola gullari esa aniq şakl va simmetriyaga ega. Bundan ma'lum böladiki, Rozmari hayotda tartib-intizom, nazorat hamda mukammallikni afzal köradi. Unga tabiiylikdan köra, taşqi gözallik, intizom ustun tuyuladi. Yozuvçi boş qahramonning gullar borasidagi uşbu tanlovi orqali, uning içki psixologik portretini tasvirlab beradi. Ya'ni u Rozmari tartibni afzal köradi deb töğridan-töğri aytmaydi. Balki gul tanlaş voqeasi yordamida, bilvosita psixologik ifoda orqali öquvçiga yetkazib beradi.

Mensfildning öz hikoyalarida peyzajdan ustalik bilan foydalanişi haqida köp töxtaldik. Buning isboti sifatida boşqa olimlarning ham fikrlariga, ilmiy tadqiqot işlariga murojaat qilamiz. Şu örinda Polşalik adabiyotşunos Anna Kviatkovskaning "Ketrin Mensfildning ayrim hikoyalaridagi ayol obrazlarining XVII asr janr rangtasviri bilan qiyosiy talqini" deb nomli maqolasini keltirib ötsak. Uşbu maqolada Mensfildning asarlaridagi ayol obrazlari XVII asr Golland rassomçiligi janrlari bilan qiyoslanadi. Unga köra, Mensfild hikoyalarida peyzaj mustaqil tabiat tasviri sifatida emas, balki qahramonlar ruhiyatini oçib beruvçi poetik komponent sifatida işla-

tiladi. Hattoki, interyer ham oşxona, oynalar, stol, yoruğlik kabi elementlar xuddi mohir rassom kabi tasviriy san'at kompozitsiyalari tamoyillariga asoslangan holda tasvirlanadi. Olimaning fikriga köra, Mensfild hikoyalaridagi makon, ya'ni uy, oşxona yoki boğ asar qahramonlarining ruhiy holatlarini ifodalovçi joydir. Uning hikoyalaridagi peyzaj real voqelikni tasvirlaş vositasi emas, balki ayol obrazlarining psixologik holatlarini şakllantiruvçi poetik komponentdir. Yuqorida misol qilib keltirib ötilgan hikoyalar "Ming bir jon", "Boğdagi ziyofat", "Xotinlar", "Bir piyola çoy" kabilardagi peyzaj tasvirlari ham uşbu fikrlarning dalili böla oladi. Ularda ham peyzaj qahramonlarning içki keçinmalarini, psixologik holatini oçib berişga xizmat qilgan. Qahhor va Mensfildning hikoyalarini qiyoslaş va keltirilgan misollar, asarlarida peyzajdan foydalanişdagi uslubiy mutanosiblikni isbotlaydi. Anna Kviatkovskaning fikriga köra, golland rassomlari singari, Mensfild ham predmetlar va makonlar sonini çeklaş orqali, ularga alohida ahamiyat bağişlaydi. Ammo, farqli ravişda golland rasmlarida tarqoq holda tasvirlangan buyumlarning ramziy ma'nosini öşa davr tomoşabinlari osongina tuşuna olganlar. Mensfild kitobxonlari esa oddiy kundalik voqealar haqidagi sodda köringan hikoyalar zamiridagi murakkab holatlarni anglaş uçun muayyan ramziy tilni bosqiçma-bosqiç örganişlariga töğri keladi.

Mensfild hikoyalari şuni ta'kidlaydiki, XX asr boşlarida ayollar avvalgidan köproq erkinlik va huquqlarga ega bölsalar-da, lekin amalda ular bundan yetarliça foydalanişga jasorat körsata olmaydilar. Bundan taşqari, jamiyatning ayollarga bölgan munosabati deyarli özgarmaydi. Ular patriarxal qaraşlarga asoslangan uy hayoti doirasida qolişda davom etadilar. E'tiborga molik jihati şundaki, Mensfild golland rassomlari asarlaridagi sukutdan foydalanib, özining ijtimoiy tanqidini yanada ta'sirliroq va yaqqolroq ifodalaydi. Uning hikoyalarining taşqi tomondan oddiy körinişi hamda vizual va estetik jihatdan jozibali tarzda ifodalanişi, xuddi golland rassomlari asarlaridagi kabi, uning ayol qahramonlari öralib qolgan ijtimoiy qoliplar va an'analarning murakkab tizimini yaşirib turadi. Olimaning keltirgan barça fikrlari, Mensfild hikoyalarida peyzaj va interyerdan xuddi rassomlardek foydalana olgani va bu uning asarlariga estetik gözallik, ramziylik va psixologik tasvirni yanada börttirişga xizmat qilganini tasdiqlaydi.

Ketrin Mensfild hikoyalari böyiça ilmiy izlaniş olib borgan yana bir tadqiqotçi Finlyandiyalik Elina Mannerhovi özining "Ketrin Mensfild hikoyalarida boğ ayol makoni sifatida" deb nomlangan dissertatsiyasida muhim fikrlarni keltirib ötadi. Uning fikriga köra, Mensfild hikoyalarida boğ bu tabiat va madaniyat, jamiyat va şaxsiy hudud orasidagi makondir. Ya'ni boğ bu töliq uy ham emas, taşqi dunyo ham emas, balki qahramonlar haqiqatni, özligini anglab yetadigan oraliq makondir. Mensfildning köpgina hikoyalarida qahramonlar öz içki keçinmalarini nutq orqali emas, balki boğ, undagi ösimliklar, peyzaj bilan ruhiy uyğunlaşuv orqali namoyon eta-

dilar. Uning asarlarida boğ qahramon içki dunyosining bilvosita ifodasiga aylanadi. Olimaning fikriga köra, Mensfild asarlarida boğ ayol obraziga uyga qaraganda köproq erkinlik beradi. Ammo bu hali töliq erkinlik emas.

Mensfildning “Ma Parkerning hayoti” hikoyasi Qahhorning “Ming bir jon” hikoyasi kabi ayolning sabr-toqati haqidadir. Lekin ikkala yozuvçining ayol iztiroblari, irodasi va matonatini ifodalaş yöllari turliça. “Ming bir jon”da oğir kasallik bilan kuraşayotgan ayol irodasi tasvirlansa, “Ma Parkerning hayoti”da esa hayotda juda köp qiyinçiliklarni boşidan keçirgan keksa bir ayol taqdiri körsatiladi: “Bu dahşatli joy edi uning ilk iş joyi. Unga taşqariga çiqişga heç qaçon ruxsat berilmasdi. U faqat tonggi va keçki ibodatlar uçungina yuqori qavatga kötarilardi. Bu şunçaki bir yertöla edi. Oşpaz ayol esa şafqatsiz edi. U qizning uydan kelgan xatlarini öqişiga yöl qöymay, ularni tortib olar va peçga uloqtirib taşlardi; çunki bu xatlar qizni xayol surişga undardi. Qora qönğizlar-çi! Işonasizmi? Londonga kelguniga qadar u biror marta ham qora qönğizni körmagan ekan. Şu paytda ona yengil kulib qöyardi; U xuddi Londonga kelguniça qora qönğizni umuman körmagandek tutardi-da özini. Nahotki! Bu xuddi öz oyoqlaringni heç qaçon körmagandek gap-da...” Mazkur parçada Ma Parkerning bolalikdan boşlangan maşaqqatli hayoti tasviri beriladi. U bolalikdagi uyini tark etib, kimningdir uyiga xizmatkor sifatida keladi va erkidan mahrum böladi. Öşa uyning yertölasida yaşab, faqatgina ibodat uçun yuqori qavatga çiqişiga ruxsat beriladi. Oşpaz ayolni esa u juda şafqatsiz deb ta’riflaydi. Çunki u Parkerning uyidan kelgan xatlarini tortib olib, hatto, öqişga ruxsat bermasdan yoqib yuboradi. Uning fikriça, xatlar uni öyçan va xayolparast qilib qöygan bölardi. Bularning barçasi uning xotirasida yomon iz qoldiradi. Uning har qanday qiyinçiliklarda sukut saqlaşi va ularni oddiy hol deb qabul qilişi, çidamliligi, köp yiğlamasligi, öz manfaatini oxirgi öringa qöyişi bolalikdan şakllangan ijtimoiy tajriba natijasidir. Çunki u uzluksiz azoblarga moslaşişga majbur bölgan. Parker kuçli, matonatli ayol bölişni öz ixtiyori bilan tanlamagan. Uni bunga hayot majbur qilgan. Şu örinda, uşbu parça orqali uning matonati bilan birga taqdirining fojiaviy ekanligi ham körsatib beriladi. Bundan taşqari, u qora qönğizlar haqida ham eslaydi va yengilgina kulib qöyadi. Londonga kelguniga qadar ularni heçam körmaganini aytib ötadi. Ma’lumki, qora qönğizlar yertölaga öxşagan nam, tozalanmagan, qarovsiz joylarda böladi. Bundan esa Parkerning xizmatkorlik hayoti boşlangunigaça bölgan davrda yaxşiroq şaroitda yaşaganini, bolaligi nisbatan tabiiy va musaffo muhitda ötganini, Londonga kelganda esa, juda abgor muhitda yaşaganini tuşuniş mumkin. Qora qönğizlarni körmaganlik, göyoki, öz oyoqlaringni körmaganlik bilan barobar degan gapi uning qiyinçiliklarga töla, oğir şaroitlarni odatiy hol kabi qabul qilişga örganib qolganligini bildiradi. Bu voqealarning barçasini yengil kulgi bilan sözlab berişi uning quvonayotganini emas, balki oğir xotiralarini yumşatayotganini, iztiroblarini oçiqlamasdan yaşirayotganini ifodalaydi. Çunki u

butun hayoti davomida yiğlamaslikka, şikoyat qilmaslikka, his-tuyğularini yaşirişga va hayotidagi azob-uqubatlarni oddiy holdek qabul qilişga örganib qolgan. Şunga köra aytişimiz mumkinki, yozuvçi Parkerning yengil kulgisini uning xarakterini oçib beruvçi muhim psixologik detal sifatida qöllagan. Mana şu yerda fojia va kulgi örtasida qarama-qarşilik yuzaga keladi, çunki mazmun fojiaviy, ammo qahramon buni kulib yodga oladi va bu yerda tragik ironiya hosil böladi.

Abdulla Qahhorning "Ming bir jon" hikoyasida ham şu epizodga juda yaqin vaziyat bor: "Mastura piqirlab kulib yubordi: yana kuldi, yoş boladay özini tutolmay qiqirlar edi. Bunaqa narsa menga ta'sir qilmaydi, – dedi. Akramjon bularga tobut voqeasini aytib bering... Yöq, yöq, özim aytib beraman! Akramjonning ikki örtoği hovlimizga tobut kötarib kirdi! "[1] Hikoyadan olingan parçada sakkiz oydan beri kasalxonadan çiqmay oğir ahvolda yotgan Masturani öşa kasalxonadagi boşqa kasallar tomonidan yöqlab kelinişi va ulardan birining Masturaning ölikka öxşab qolgan körinişidan qörqib ketib, mazasi bölmay palatadan çiqib ketişi, Mastura esa bundan xafa bölmay, vaziyatni kulgi bilan yumşatişi hamda erining örtoqlari Masturani öldi deb öylab, uyiga tobut kötarib kelganligi voqeasini kulib-kulib, sözlab berişi haqidadir. Bu asardagi Masturaning kulgisi ham juda köp ma'nolarni ifodalaydi. Lekin, u Parkerning kulgisidan butunlay farq qiladi. Töğri, qaysidir ma'noda Masturaning kulgisi ham ölimdan qörquvni yaşiriş vositasi bölişi mumkin. Ammo köproq Masturaning kuçli irodasi, xastalikka qarşi kuraşi, hayotga bölgan muhabbati, atrofdagilarga ruhiy kuç berişi, ya'ni uning xarakterini körsatib beruvçi ramziy ifoda vositasidir. Hikoyadan olingan bu parça Masturaning xastalik bilan qattiq kuraşayotganini, ölim bilan yuzlaşsa-da, yaşaşdan umidini uzmaganligini ifodalaydi. Ikkala hikoyadan olingan parçalarda ham yozuvçilar xotira uslubidan foydalanadilar. Ya'ni boş qahramonlar ötmişda öz hayotlarida sodir bölgan voqealarni eslab sözlaydilar. Bu orqali mualliflar hikoyalardagi ayol obrazlarining xarakterlarini oçadilar. Buni ham bilvosita psixologik ifoda usulining muhim körinişi deb aytişimiz mumkin. Şu bilan birga, hikoyalardagi ayol obrazlari ruhiy tomondan har xil tasvirlanadi. Parker xonim sukutga çömgan, hayot sinovlaridan çarçab, ezilgan, kamgap ayol sifatida, Mastura esa hazilkaş, sergap, oğir xastaligiga qaramay, hayotni sevuvçi, atrofidagilarga ham taskin bera oladigan darajada kuraşuvçan va kuçli ayol sifatida körsatiladi. Masturaning quyida berilgan gapi fikrimizning dalilidir: "Bunaqa narsalar ölim kutib yotgan kasalga yomon ta'sir qilişi mumkin, men heç qaçon ölim kutgan emasman, kutmayman ham!"[2]

Hikoyalarning xotimasi bir-biridan keskin farq qiladi. Masalan, "Ma Parkerning hayoti" hikoyasi yakunida quyidagi fikrlar keltiriladi: "Buvining yiğlagisi kelardi. Qani endi hozir yiğlay olsa uzoq vaqt, hammasi uçun

1. Qahhor A. Anor. – Toşkent: Ğafur Ğulom, 2012. – B.115-116.
2. Qahhor Abdulla. Anor. – Toşkent: Adabiyot va san'at, 2012. – 116-b.

yiğlasa: öşa birinçi iş joyi va şafqatsiz oşpazdan boşlab, şifokor huzuridagi voqealar, keyin yetti nafar jajji farzand, erining ölimi, bolalarining uni taşlab ketişi va Lenni hayotiga qadar bölgan barça maşaqqatli yillar uçun... Ammo bularning bari uçun maromiga yetkazib yiğlaş köp vaqt talab qilardi". Uşbu parçani hikoya yakunidagi ramziy kulminatsiya deb atasak böladi. Çunki bu yerda qahramon faqatgina bir hodisa uçun emas, balki özining bir umrlik yiğilib kelgan iztiroblari haddan taşqari köpayib ketganligi uçun, bolaligidan xizmatkorlikka va zulmga mahkumligi, oşpaz ayolning şafqatsizligi, erining kasalligi, uni yöqotişi, yettita bolasining ölimi va oxiridagi nevarasining ölimi unga oxirgi zarba bölişi tufayli ortiq yiğlamaslikka bardoşi yetmayotgani uçun yiğlaşga joy qidirişni boşlaydi. Hikoya söngidagi bu fikrlar töliq içki monolog ham, muallif bayoni ham emas, uçinçi şaxs rivoyatidir.

Asardagi Parker xonim şunçaki yiğlab olmoqçi emas, unga uzoq yiğlaşi uçun vaqt va joy kerak. Neça yillar deganda, u oxiri öz qayğusini içiga yutmay, yuzaga çiqarişni va töyib-töyib yiğlaşni xohlaydi. Ammo, keyingi jumlalardan bilişimiz mumkinki, hattoki, u özіga yiğlab olişi uçun qulay joy topolmaydi.

Xulosa qilib aytganda, har ikkala yozuvçi öz asarlarida ayol obrazini milliy va estetik an'analarga rioya qilgan holda talqin qiladilar. Mensfildning ham, Qahhorning ham hikoyalarida ayolning içki ruhiyatini oçib beriş özіga xos bölib, bunda ular ramziy detallar, peyzaj, bilvosita psixologik tasvirdan mohirona foydalanadilar. Bu xususiyatlar ularning asarlaridagi muştarak jihatlarni aks ettiradi. Şu bilan bir qatorda, ayol xarakterini yaratişda, har bir ijodkorning özіga xos, farqli tomonlari ham namoyon böladi. Jumladan, Mensfilddagi ayol xarakteri köproq sukut va içki monolog orqali oçib berilsa, Qahhordagi ayol obrazi jamiyatning ularga bölgan munosabati, dialog hamda yumor orqali ifodalanadi.

Sitorabonu Ataullayeva,
Alişer Navoiy nomidagi Toşkent davlat özbek tili va adabiyoti universiteti ingliz tili öqituvçisi